

NAVOIY VA ADIB AHMAD
Shukurova A.(SamDU magistranti)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ulkan ma'naviy merosi, uning buyuk asarlari yaratilishida "Hibat ul-haqoyiq" hikmatlarining ta'siri, bu ikki pandnoma yoshlarning ma'naviy yuksalishidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Jahon mumtoz adabiyotining yirik vakili Alisher Navoiy ulug' shoir, nosir, mutafakkir, davlat arbobi, yirik adabiyotshunosdir. Alisher Navoiy badiiy yuksak devonlar tartib berish bilan birga epik poemalar ham yaratdi. Navoiy epik she'riyatiga "Xamsa"ni va "Lison ut-tayr" dostonini kiritamiz. Bu dostonlarning yaratilishida ungacha ijod etgan salaflarining ta'siri bo'lgan. Navoiy nafaqat, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy ijodiy an'alariga murojaat etadi, balki Xorazmiy, Atoiy, Lutfiy, Gadoiy kabi ijodkorlarning ijodi ham u uchun ilhom manbasi edi. "Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" dostoni shoirning komil inson xususidagi hikmatlariga ilhom berdi", – deyiladi "Navoiyning nigohi tushgan" kitobida. (Toshkent, 1988)

Darvoqe, Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Adib Ahmad shaxsiyati va ijodiga to'xtaladi. Bu ma'lumot yugnakiyshunoslikda muhim ahamiyatga molikdir. Chunki Navoiy bizga Adib Ahmad haqida aniq ma'lumotlarni yetkazadi.

Birinchidan, uning qayerda yashagani, ikkinchidan, ustoz va hamsaboblari, uchinchidan, Adibning yashagan davri, undagi ma'naviy-madaniy muhit, to'rtinchidan jismoniy ahvoli, beshinchidan, hayotda tutgan mavqei va asarlarining ahamiyati, ijod yo'nalishi va h.k.¹

Navoiy yozadi: "Xeyli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusida hikmat va nuktalari shoe'dur. Nazm tariqi bila aytur ermish..."²

Yuqoridagi ma'lumotlar Alisher Navoiyning Ahmad Yugnakiy ijodi bilan tanish bo'lganini isbotlaydi. Adib Ahmad ijodi Navoiy uchun ma'lum darajada saboq va maktab vazifasini o'tagan.

Shularni inobatga olib, quyida "Hibat-ul-haqoyiq" va "Hayrat ul-abror" dostonlari qiyosiy tahliliga oid ba'zi mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz.

Ahmad Yugnakiy X-XII asrlar o'zbek adabiyotining yirik namoyondasi, iste'dodli shoirdir. Ijodkordan yagona adabiy meros "Hibat ul-haqoyiq" dostoni yetib kelgan. Doston 256 baytdan iborat. "Hibat ul-haqoyiq" ilk uyg'onish davri o'zbek adabiyotining mo'tabar manbasidir. Ahmad Yugnakiyning bu dostoni sharq mumtoz adabiyoti an'alariga rioya etilgan holda yozilgan Doston 14 bobdab tashkil topgan. Dostonning kompozitsion qurilishi quyidagicha:

1. Bismillohir rahmonir rahim (parvardigor hamdi)
2. Fi na'til nabiyy alayhissalom (payg'ambar na'ti)
3. Fi madlhin amiril ajalin Dad Sipahsalar Bek (hukmdor madhi)
4. Kitobning yozilish sabablari.

¹ Имомназаров М. Адиб Аҳмад қачон яшаган? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1995. 31-март

² Алишер Навоий. Асарлар. 15-том. Т.: 1968, 156 бет

Mazkur to'rt bob doston muqaddimasini tashkil etadi. Muqaddimadan so'ng asosiy qism boshlanadi:

5. Ilm manfaati, jaholat zarari haqida.
6. Tilni asrash va odob-axloqqa intilishi.
7. Dunyoning o'zgarib turishi haqida.
8. Saxiylik va baxillik haqida.
9. Tavozelek manfaati, kibrlik va harislikning zarari.
10. Turlicha ma'no bildiruvchi baytlar.

Keyingi bob xotima hisoblanadi.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonining kompozitsion qurilishida ham yuqoridagi an'anaga munosib an'anaviy muqaddima qismi mavjud.

Doston:

Bismillohir-rahmonir rahim

Rishtag'a chekti necha durri yatim.

deb boshlanadi. Shundan so'ng:

- II. Hamd.

- III-IV-V-VI - Munojot

- Jami 5 ta Na't, ustozlar ta'rifi, so'z ta'rifi va podshoh Husayn Boyqaro ta'rifidan tashkil topgan. Ko'ngul ta'rifi, uchta hayratdan so'ng asosiy maqolatlarga o'tiladi. 20 ta maqolat va hikoyat, xotima qismdan tashkil topgan.

Bu ikki doston pandnoma xarakterida bo'lib, ularning kompozitsiyasida mushtaraklikni kuzatamiz. Ikkalasida ham muqaddimaviy qismlar, "Hibat ul-haqoyiq"da Dod Sipohsolor Bek madhi berilsa, "Hayrat ul-abror"da Husayn Boyqaro madhi; har ikkisida ham xotimaviy qismning mavjudligi fikrimiz dalilidir.

"Hibat ul-haqoyiq"da ilm, jaholat, tilni asrash ya'ni til odobi dunyoning o'zgarib turishi saxiylik, kibr kabi masalalar yoritilgan. "Hayrat ul-abror"da Navoiy shu mavzularga murojaat etadi. Ayrimlariga maxsus maqolat ajratsa, ayrimlarini ma'lum bir bob tarkibida izohlaydi.

Jumladan, har ikki doston tarkibida ham "saxovat" masalasiga maxsus qism ajratilgan. "Hibat ul-haqoyiq"da 8-bob shu mavzuga bag'ishlansa, "Hayrat ul-abror"ning 5-maqoloti saxiylik haqidadir. Yugnakiy yozadi:

Qamug' til axi er sanosin ayur,
Axiyliq qamug' ayb kirini yuyur.
Axiy bo'l senga so'z so'kunch kelmasun,
So'kunch kelgu yo'lni axiyliq tiyur.³

Ya'ni: Hammaning tili saxovatli kishining madhini qiladi, saxiylik kishilarning barcha kamchiliklarini yuvib ketadi. Saxiy bo'l, senga la'nat kelmasin, la'nat so'kunch keltiradigan yo'lni saxovat berkitib qo'yadi.

Navoiy esa:

³ A. Югнакий. Ҳибат ул-ҳақойик. Нашрга тайёрловчи Қ. Маҳмудов. – Т.: 1971.

Judu saxovat chog'i buxl etmagil,
Shukr zamoni dog'i buxl etmagil.

Buxl erur borchasifatdin xasis,
Lek saxo javhari asru nafis.

Garchi saxovat sanga oyin erur,
Boshingga bu dur bila tazyin erur.

Ya'ni: Ehson va saxovat ko'rsatish vaqtida baxillik qilma, Xudoga shukr bildirish chog'ida ham tanti bo'l. Baxillik insonda bor sifatlarni eng past, lekin saxovat javhari esa eng nafisi. Saxiylik senga odat bo'lib, boshing shu saxiylik duri bilan porlab turadi.⁴

“Hibat ul-haqoyiq”da quyidagi to'rtlik mavjud.
Bu dunyo sungitin yegu kezugulik,
Ul ortiq tilama vabal yitgulik.
Tariqlik teb aydi achunni Rasul,
Tariqlikda qatlan tari edgulik.⁵

Ya'ni bu dunyo boyligidan yegulik, kiygulik bo'lsa yetarli, ortiqcha tilama, uning oshiqchasi og'irlik qiladi. “Rasul dunyoni ekinzor” – deb atadi. Ey ekin ekuvchi, ekin ekishda kechikma. Bu to'rtlikka asos bo'lgan manba payg'ambar (a.s.) ning “Dunyo oxiratning ekinzoridir” degan hadislarini hisoblanadi. Ushbu hadis “Hayrat ul-abror” dostonining 5-maqolati “Karam ta'rifi...” qismida keltirilgan.

Ne bukun ekilsa bu maqbul erur,
Kim anga tongla kuni mahsul erur.
Dunyo erur mazraai foxira,
“Al dunyo mazraatul - oxira”.
Munda ekib anda o'rarsen yaqin
Jahd etkin bo'lmag'asen xo'shachin.⁶

Ikki ijodkor ham bu hadisni bir g'oyani isbotlash uchun keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiydan ulkan ma'naviy meros qolgan. Uning buyuk asarlari yaratilishida “Hibat ul-haqoyiq” hikmatlarining ham ta'siri bo'lgan. Bu ikki pandnoma yoshlarning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий. Асарлар. 15-том. Т.: 1968, 156 бет

⁴ Алишер Навоий. Хайрат ул-аброр. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989.

⁵ А. Югнакий. Ҳибат ул-ҳақойиқ. Нашрга тайёрловчи Қ. Маҳмудов. – Т.: 1971.

⁶ Алишер Навоий. Хайрат ул-аброр. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989.

2. Алишер Навоий. Хайрат ул-аброр. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989.
3. А. Югнакий. Ҳибат ул-ҳақойиқ. Нашрга тайёрловчи Қ. Маҳмудов. – Т.: 1971.
4. Имомназаров М. Адиб Аҳмад қачон яшаган? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1995. 31-март